

OILADA BOLALAR XARAKTERINING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

*Mirzanazarova Dilfuza Qurbanovna
Surxondaryo viloyati Boysun tumani
12-umumi o'rta ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda aynan bolalar o'rtasida sodir etilayotgan deviant (xulqi og'ishgan) xulq-atvor ko'rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo'lган illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligidan kelib chiqmoqda. Bunda, ota-onalar farzandlari tarbiyasiga befarq, loqayd munosabatda bo'lishi, oilada sog'lom turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ota-onalarni farzandlarining yoshiga xos bo'lган psixologiyasini, ularga xos bo'lган shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi bilimlarini yetishmasligi tufayli jamiyatimiz uchun zid bo'lган xatti-harakatlarning yuzaga kelayotganligi, natijada, ilmiy asoslangan ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini ochib berishligini taqozo etadi.

Kalit so'zlar: shaxs, an'ana, urf-odat, munosabat, ota-onsa, xarakter, muhit, tarbiya, ruhiy rivojlanish, psixik jarayonlar, muloqot, depressiv xulq, tarbiya, psixologik ko'nikmalar

KIRISH

Bir guruh psixologlarning aniqlashicha, xarakterning yangi sifatlarini yuzaga kelishi va ularning mustahkamlanishi real vaziyatni taqozo etadi. Shuning uchun ham xatti-harakat odatni, odat esa xarakterni va xarakter taqdirlini yaratadi, degan fikr mavjud. Xarakter qandaydir turg'un va o'zgarmas xususiyat emas. Jumladan, bolalik yoshida xarakterning xususiyatlari odatda "jiddiyashish", "boshqacharoq bo'lib qolish" tarzida ko'rindiki, bu hol ijtimoiy omillardan ya'ni, atrofdagilarga nisbatan munosabatning murakkablashuvi, gormonal yetilish natijasida namoyon bo'la boshlaydi. Shaxs xarakterdagi o'zgarishlarni yetarlicha hisobga olmaslik ziddiyatli va nizoli munosabatlarni vujudga keltiradi. Ayni shu davrda bola xarakterida aktsentuatsiya xususiyatlari, jumladan, emansipatsiya reaktsiyasi kattalar qaramog'idan "ozod" bo'lishlik, tengqurlari bilan guruhashish reaktsiyasi, ishtiyoq reaktsiya, xobbi reaktsiyasi kabilar ustivorlik qiladi. Aynan bolalar o'rtasida sodir etilayotgan deviant (xulqi og'ishgan) xulq-atvor ko'rinishlari jumladan, jinoyatchilik, giyohvandlik, agressivlik, suitsid kabi turli jamiyatimiz uchun yot bo'lган illatlar oilada shaxslararo munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligidan kelib chiqmoqda. Bunda, ota-onalar farzandlari tarbiyasiga befarq, loqayd munosabatda bo'lishi, oilada sog'lom turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ota-onalarni farzandlarining yoshiga xos bo'lган psixologiyasini, ularga

xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi bilimlarini yetishmasligi tufayli jamiyatimiz uchun zid bo'lgan xatti-harakatlarning yuzaga kelayotganligi, natijada, ilmiy asoslangan ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini ochib berishligini taqozo etadi. To'g'ri, hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi munosabati bilan oilaning etnopsixologik xususiyatlaridagi milliy barqarorlik susayib, zamonaviylashish tendentsiyasi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu fikrga V.V.Boyko ham qo'shilib, bolalarda xarakter shakllanishiga ta'sir etuvchi zamonaviy oilalarning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ajratib ko'rsatadi:

-Birinchidan, oilaning nuklearlashib borishi oqibatida yani oilada er-xotin va farzandlardan iboratlligi zamonaviy kam farzandli nuklear oilalarning ko'p avlodli oilalardan farqli ravishda bola xarakterining shakllanishida o'ziga xos ijtimoiypsixologik muhitni tashkil etadi. Bunday oilalarda ko'pincha shaxslararo munosabatlarning qisqa zanjiri ustunlik qiladi, oila a'zolarining o'zaro bir-biriga ta'sir etish vositalari chegaralangan, shuningdek, taqlid qilish uchun namuna va vaziyatlar ham kam shakllanganligi bilan farqlanadi.

-Ikkinchidan, oiladagi o'ta bog'liq va bir xildagi munosabatlar oqibatida bolalarning ota-onasi xulqi namunalarini mustahkam egallashlari ehtimolligini oshiradi. Ota-onalar xulq-atvordan tanlab olish chegaralangan bo'lganligi sabab, bolalar ijtimoiy-tipik xususiyatlarni egallashi, qaysiki, o'zida ham mikromuhit, ham individual



xususiyatlarining aks etishi ehtimolidan holi emasdir.

Keltirilgan turli ilmiy ma'lumotlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, zamonaviy oilaning o'ziga xos xususiyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun insonparvarlik tajribasining cheklanganligi bilan ifodalanadi. Bazi yosh oilalarimizda bolalar, o'smirlar, katta kishilar va boshqa shaxslarga nisbatan kommunikativ tolerantlik (bag'rikenglik)

sifatlari yetarlicha o’z aksini topmaganligi,oila a’zolari o’rtasida yetarlicha ma’lumot almashinish chegaralangan, to’g’ri yo’lga qo’yilmagan, bori ham xozirgi vaqtida ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o’rnatish orqali amalga oshirilishi, shuningdek, «biz» tushunchasi va unga munosabat yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Ko’pgina holatlar oqibati sifatida yuqori darajada bolalarning «personifikatsiyasi», ya’ni oila davrasida bolalarning o’z «men» ini ko’rsatishi hisoblanib, bu o’zining haqligini ta’kidlash, o’zini ota-onalarga qarama-qarshi qo’yish, ularga qarshi harakatlar qilish, ularning qadrini, obro’sini ni inkor etish, ular berayotgan maslahatlardan to’liq foydalanmaslik orqali namoyon bo’lmoqda.

Bu esa bola xarakter xususiyatlariga xos bo’lmagan begonalashishning ayrim shakllarini yuzaga kelishiga sabab bo’lmoqda. Ayni vaqtida oilada shakllangan oila a’zolarining begonalashishi bolalarning boshqa doiralarda ya’ni, turli guruuhlar va soatlab axborot vositalari bilan band bo’lishiga olib kelmoqda. Oiladagi o’ta qat’iy chegaralangan oila a’zolarining munosabatlari, bunda, ota – onalarning o’ta talabchanligi, bolalarda ning xarakter xususiyatlarida nuqsonli xislatlarini keltirib chiqaradi. Bu o’z navbatida ota – onalarning bolaga nisbatan munosabatida yanada qat’iy holatlarning xosil bo’lishiga olib keladi. O’zaro munosabatlarning agressiv holati natijasida esa bir biriga nisbatan bemehrlilik, qo’pollik va ota – onalarning qo’rsligi bolalarda agressivlik reaktsiyasini uyg’otadi va o’zaro munosabatlar jarayonida ziddiyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo’lishini kuchaytiradi.

Munosabatlarning kelishuvchanlik holati. Bu holatda ota-onalar kompleksi bolalar kompleksini hayotga yo’naltiradi. Masalan, ota-onaning doimiy ravishda boladan noroziligi, bolasini tanqid qilishi, urishishi, xaqorat qilishi, tahqirlashi boladada o’z navbatida aybdorlik xissini shakllantirib, uni mактабда, мактабдан ташқари жамоаларда himoya reaktsiyalarining yetishmasligiga, muloqotda o’zini chetga tortishiga, o’z-o’zini himoya qila olmaslikga, biror ta’sirga tezda javob qaytara olmaslik holatiga va o’zini tezda yo’qotib qo’yish holatiga olib keladi. Bolalarning bunday xulq atvori ota-onalari va atrofdagilar uni boshqarishiga, boshqalarga tobe bo’lib qolishga, bog’lanib qolishiga, mustaqil bo’la olmasligiga sabab bo’ladi. Ketma-ket bo’lmagan munosabatlar. Bunda ota-onalarning bola tarbiyasidagi ehtiyyotsizligi, loqaydligi va bolaga nisbatan talabchan bo’lmasligi bilan ajralib turadi. Bolalarga nisbatan qo’yilgan noto’g’ri talablar yo o’zini oqlamagan yoki o’ta yumshoq ko’rinishda bo’lib, muayyan bir harakati uchun bir safar jazolasalar, keyingi safar e’tiborsiz qoldirishining natijasiadir. Bunday holatlarda bolalar xulq-atvor normalarida, burch, ma’suliyat hissi kabi tushunchalar haqida o’ylamaydi va muayyan tasavvurlarga ega bo’lmaydi. Bolaning oilada shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta’sir etuvchi omillarning assosiysi bevosita muhit va mikromuhitdir. Avvalo, bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, xarakterini shakllantiruvchi jamoa, uning ota-onasi, qarindoshlari, tengdoshlari, mактабгача та’лим муассасаси tarbiyachilari, mактаб pedagoglar jamoasi va boshqalardir. Darhaqiqat, kelajagimiz poydevori bo’lgan

yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsga xos bo’lgan xarakter xislatlari, shuningdek, millatimizga xos bo’lgan etnik xususiyatlarimizdan, kattalarni e’zozlash, kichiklarni izzat qilish, Vatanni sevish va burch kabi hislatlarning barchasi oilada shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, oiladagi turli tuman tarbiya usullarini qo’llash tarbiyalanuvchining xarakter xususiyatlariga mos kelishi, ya’ni ota-onalar, tarbiyachilar bolalarning individual psixologik xususiyatlarini e’tiborga olib tarbiya usullarini va shakllarini qo’llashi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o‘quv qo‘llanma M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O‘qituvchi, 1974. – 194 s.
2. Dostmuhammedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunsova G., Ziyavitdinova G. “Umumiy psixologiya”. Toshken, 2020-yil
3. Ziyo.net